



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI

2025-yil 20-oktabr

485-4-0-Q/25

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga Qamashi tumani “Oqquzar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlaridagi “Irrigatsiya bo‘limi ma‘muriy binosi, omborxona, garaj va suvchilar uyi binolari”ning amalda foydalanib kelinayotgan yer uchastkasini doimiy foydalanish huquqi asosida ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining 2025-yil 3-oktabrdagi 01-10/2984-son buyurtma xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 10-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi, vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga amalda foydalanib kelinayotgan, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan Qamashi tumani “Oqquzar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi “Qamashi irrigatsiya bo‘limi ma‘muriy binosi”ning 0,9625 gektar va 0,26 gektar, “Qamashi irrigatsiya bo‘limi omborxonasi”ning 1,0225 gektar, “Qamashi irrigatsiya bo‘limi garaj binosi”ning 0,09 gektar va “Suvchilar uyi”ning 0,45 gektar, jami 2,785 gektar yer maydonlari doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydonlari bo‘yicha tayyorlangan hujjatlar yig‘majildi, vakolatli tashkilotlarning xulosalari va kelishuvi bo‘yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib, ma’lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkalariga kadastr pasportini rasmiylashtirsin;

ushbu yer uchastkalariga bo‘lgan huquqni “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali ikki ish kuni davomida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi ajratib berilgan yer maydonlaridan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

6. Ajratilgan yer maydonlaridan ikki yil muddatda foydalanilmaganda mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko‘ra bekor qilinishi belgilab qo‘yilsin.

7. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining “gov.uz/oz/qashqadaryo” rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov